



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
Usmonova Muattar Bahadirjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni	14
Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari	17
Dilsora Shodmonova	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях	24
Истамова Нигора Азимжановна	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
Artikov Xayrulla Baxtiyarovich	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline	44
Lola Mannobova	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries	48
Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları	51
Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari	55
Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni	59
Abdunazarov Abdumutal Olimovich	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari	64
Alimova Gulrux Farhod qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	70
Axtamova Mohinur O'tkir qizi	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni	74
Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida)	78
G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi	82
Hamraqulova Durdona Dilshod qizi	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi	87
Hikmatova Yulduz Nuritdinovna	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli.....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi	153
<i>Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi	195
<i>Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna</i>	
Modern Teaching Methods in English Language Learning.....	199
<i>Sarvinoz Abdulhakimova</i>	
Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi	202
<i>Shahnoza Muhammadiyeva</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	205
<i>Shopulatova Nasiba Umirovna</i>	
Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari.....	208
<i>Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid</i>	
Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	211
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students.....	215
<i>Toshmamatova Marjona Olimjon kizi</i>	
Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik	220
<i>Toshpo'latova Mahina Farxod qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari	224
<i>Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi</i>	
Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations	228
<i>Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi</i>	
Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications.....	232
<i>Veronica Khatamova</i>	
Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi	236
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida	240
<i>Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova</i>	
Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish	246
<i>Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi</i>	
The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation.....	250
<i>Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.</i>	
Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan	254
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubaevna</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish	257
<i>Xoldorova Mashxura G'ulomovna</i>	
Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari.....	260
<i>Xudaybergenova Zuxra Isakovna</i>	
Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari	263
<i>Yusupov Ma'mur Ma'rufovich</i>	
Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина.....	269
<i>Рахимова Шахзода Равшановна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari	273
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	276
Xidirov Faxriddin Fozilovich	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды	280
Рахмонова Нилуфар Уткир кизи	



O'YIN TEXNOLOGIYALARINING AQLIY RIVOJLANISHIDA MUAMMOLARI BO'LGAN BOLALAR IJTIMOIIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Abdunazarov Abdumutal Olimovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
Maxsus pedagogika kafedrası dotsenti

ORCID: 0000-0003-0145-0954

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'yin texnologiyalarining aqliy nuqsonli bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda syujetli-rolli, didaktik va interaktiv o'yinlarning bolalarning kommunikativ kompetensiyasi, hamkorlik faoliyati hamda ijtimoiy moslashuviga ta'siri o'rganilgan. O'yin faoliyatining ijtimoiy tajribaning shakllanishidagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, qiyosiy tahlil va tajriba-sinov metodlaridan foydalanilgan. Natijalar o'yin texnologiyalarining bolalarda muloqot, jamoada ishlash va ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatdi. Maqolada korreksion-pedagogik faoliyatda o'yin texnologiyalaridan foydalanishning metodik modeli taklif etilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi aqliy nuqsonli bolalarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda o'yin texnologiyalarining integrativ imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Kalit so'zlar: aqliy nuqsonli bolalar, o'yin texnologiyalari, ijtimoiy ko'nikmalar, kommunikativ kompetensiya, korreksion pedagogika, syujetli-rolli o'yinlar, didaktik o'yinlar, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy moslashuv, hamkorlik faoliyati, maxsus ta'lim, ijtimoiy kompetensiya.

Abstract: This article analyzes the pedagogical potential of game technologies in developing social skills among children with intellectual disabilities. The study examines the impact of role-playing, didactic, and interactive games on communication competence, cooperation, and social adaptation. The significance of play activities in the socialization process is scientifically substantiated. Pedagogical observation, comparative analysis, and experimental methods were employed during the research. The findings demonstrate that game technologies effectively improve communication, teamwork, and social behavior skills. A corrective-pedagogical model for integrating game technologies into educational practice is proposed. The scientific novelty of the study lies in substantiating the integrative potential of game technologies for developing social competencies in children with intellectual disabilities.

Key words: children with intellectual disabilities, game technologies, social skills, communicative competence, corrective pedagogy, role-playing games, didactic games, inclusive education, social adaptation, cooperative activities, special education, social competence.

Аннотация: В статье проанализированы педагогические возможности игровых технологий в развитии социальных навыков детей с интеллектуальными нарушениями. Исследовано влияние сюжетно-ролевых, дидактических и интерактивных игр на формирование коммуникативной компетентности, сотрудничества и социальной адаптации детей. Научно обоснована роль игровой деятельности в процессе социализации личности. В исследовании использованы методы педагогического наблюдения, сравнительного анализа и экспериментальной работы. Полученные результаты показали эффективность игровых технологий в развитии навыков общения, взаимодействия и социального поведения детей. Предложена коррекционно-педагогическая модель использования игровых технологий. Научная новизна работы заключается в обосновании интегративного потенциала игровых технологий в развитии социальных компетенций детей с интеллектуальными нарушениями.

Ключевые слова: дети с интеллектуальными нарушениями, игровые технологии, социальные навыки, коммуникативная компетентность, коррекционная педагогика, сюжетно-ролевые игры, дидактические игры, инклюзивное образование, социальная адаптация, кооперативная деятельность, специальное образование, социальная компетентность.

KIRISH

Jahon miqyosida inklyuziv ta'limni rivojlantirish, imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga muvafiqiyatli integratsiyalash hamda ularning hayotiy kompetensiyalarini shakllantirish ustuvor pedagogik vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, aqliy nuqsonli bolalarning ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ faolligi va mustaqil hayotga tayyorligini ta'minlash masalalari zamonaviy maxsus pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan hisoblanadi. Aqliy nuqsonli bolalarda bilish faoliyati, nutqiy rivojlanish, emotsional-irodaviy jarayonlar va ijtimoiy tajribaning shakllanishidagi o'ziga xos xususiyatlar ularning tengdoshlari bilan samarali muloqot o'rnatishi hamda jamoa faoliyatida faol ishtirok etishida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu sababli korreksion-pedagogik faoliyatda bolalarning yosh va psixofiziologik xususiyatlariga mos innovatsion texnologiyalarni qo'llash zarurati ortib bormoqda.

Pedagogik amaliyotda o'yin texnologiyalari bolaning tabiiy ehtiyojlari va qiziqishlariga asoslangan ta'lim vositasi sifatida alohida ahamiyatga ega. O'yin jarayonida bolalar atrof-muhit bilan faol munosabatga kirishadi, ijtimoiy rollarni egallaydi, muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda ijtimoiy tajriba orttiradi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, aynan o'yin faoliyati aqliy nuqsonli bolalarda ijtimoiy moslashuv va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning eng samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi ^[1].

Tadqiqot obyekti – aqliy nuqsonli bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti – o'yin texnologiyalarining aqliy nuqsonli bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'siri.

Tadqiqot maqsadi – o'yin texnologiyalarining aqliy nuqsonli bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asoslash va samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

- mavzuga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;
- aqliy nuqsonli bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarning shakllanish xususiyatlarini aniqlash;
- o'yin texnologiyalarining korreksion-pedagogik imkoniyatlarini o'rganish;
- tajriba-sinov ishlari asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi aqliy nuqsonli bolalar ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan integrativ o'yin texnologiyalarining korreksion-pedagogik modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini eksperimental asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aqliy nuqsonli bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish muammosi maxsus pedagogika, defektologiya, rivojlanish psixologiyasi va inklyuziv ta'lim sohalarida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ijtimoiy ko'nikmalar deganda shaxsning ijtimoiy muhitda samarali faoliyat yuritishi, muloqot o'rnatishi, hamkorlik qilishi, ijtimoiy me'yor va qoidalarga rioya qilishi hamda muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qila olish kompetensiyalari tushuniladi. Aqliy nuqsonli bolalarda mazkur ko'nikmalarning shakllanishi ko'pincha sekin kechadi va maxsus pedagogik ta'sirni talab etadi.

L. S. Vigotskiy bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit va faoliyatning yetakchi rolini asoslab, o'yin faoliyatini psixik rivojlanishning muhim omili sifatida baholagan ^[2]. Olimning fikriga ko'ra, o'yin jarayonida bola real hayotda bajarishi qiyin bo'lgan ijtimoiy rollarni o'zlashtiradi va ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirib boradi. Bu esa shaxsning kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

A. N. Leontyev faoliyat nazariyasida o'yin bolaning yetakchi faoliyati ekanligini ta'kidlab, uning shaxs rivojlanishidagi o'rnini ilmiy jihatdan asoslagan ^[3].

D. B. Elkonin tadqiqotlarida syujetli-rolli o'yinlar bolalarda ijtimoiy tajriba, muloqot madaniyati va ijtimoiy rollarni shakllantirishning samarali vositasi sifatida tavsiflangan ^[4].

M. S. Pevzner va V. V. Lebedinskiylarning ilmiy izlanishlarida aqliy nuqsonli bolalarning emotsional-irodaviy rivojlanishi hamda ijtimoiy moslashuv xususiyatlari tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlari o'yin faoliyatining korreksion imkoniyatlari yuqori ekanligini ko'rsatadi ^[5].

Mahalliy olimlardan L. R. Muminova, M. Yu. Ayupova, G'. B. Shoumarov, P. M. Po'latova va boshqa tadqiqotchilar maxsus ta'lim jarayonida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish, korreksion-pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda inklyuziv ta'lim muhitida bolalarni ijtimoiylashtirish masalalarini keng o'rganganlar ^[6; 7; 8].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda o'yin texnologiyalarining umumiy rivojlantiruvchi ahamiyati keng yoritilgan bo'lsa-da, aynan aqliy nuqsonli bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan



kompleks korreksion-pedagogik model yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur tadqiqotning o'ziga xosligi ham aynan shu jihat bilan belgilanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tizimli yondashuv, faoliyatga asoslangan yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va korreksion-rivojlantiruvchi pedagogika metodologik asos sifatida tanlandi.

Tadqiqot quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi:

- ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish;
- pedagogik kuzatish;
- suhbat va savolnoma;
- qiyosiy-taqqoslash metodi;
- tajriba-sinov ishlari;
- natijalarni matematik-statistik tahlil qilish.

Tajriba-sinov ishlari maxsus maktablar va inklyuziv sinflarda tahsil olayotgan 8-12 yoshdagi aqliy nuqsonli bolalar ishtirokida tashkil etildi. Tadqiqot davomida bolalarning kommunikativ faolligi, tengdoshlari bilan hamkorligi, jamoada ishlash ko'nikmalari, emotsional moslashuvi va ijtimoiy xulq-atvor ko'rsatkichlari monitoring qilindi.

Ekspirimental guruhlarda quyidagi o'yin texnologiyalaridan foydalanildi:

- syujetli-rolli o'yinlar;
- didaktik o'yinlar;
- biznes va imitatsion o'yinlar;
- kommunikativ trening o'yinlari;
- hamkorlikka asoslangan jamoaviy o'yinlar;
- raqamli o'yin elementlari integratsiyalashgan interaktiv mashg'ulotlar.

Tadqiqot jarayonida aqliy nuqsonli bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida turli o'yin texnologiyalaridan kompleks foydalanildi. Ushbu o'yinlar bolalarning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlandi hamda kommunikativ kompetensiya, hamkorlik, mustaqillik va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirildi.

Syujetli-rolli o'yinlar bolalarning ijtimoiy tajribasini boyitish va turli hayotiy vaziyatlarni modellashtirish imkonini beruvchi samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Mazkur o'yinlarda bolalar shifokor, o'qituvchi, sotuvchi, xaridor, yo'lovchi kabi ijtimoiy rollarni bajarish orqali kundalik hayotda uchraydigan muloqot va munosabatlarni amaliy jihatdan o'zlashtiradilar. Syujetli-rolli o'yinlar bolalarda muloqotga kirishish, o'z fikrini ifodalash, suhbatdoshni tinglash, navbat kutish va hamkorlik qilish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Didaktik o'yinlar ta'limiy maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lib, bolalarning bilish faoliyatini faollashtirish, diqqat, xotira, tafakkur va nutq jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu o'yinlar jarayonida bolalar topshiriqlarni bajarish, qoidalarni tushunish va ularga rioya qilish orqali intizomlilik hamda ijtimoiy mas'uliyat ko'nikmalarini egallaydilar. Didaktik o'yinlar, ayniqsa, aqliy nuqsonli bolalarning kognitiv imkoniyatlarini rivojlantirish bilan birga, ularning jamoada ishlash tajribasini ham boyitadi. Biznes va imitatsion o'yinlar real hayotdagi ijtimoiy hamda kasbiy vaziyatlarni sun'iy tarzda modellashtirishga asoslanadi. Bunday o'yinlar davomida bolalar muammoli vaziyatlarni hal qilish, qaror qabul qilish, vazifalarni taqsimlash va jamoa bilan hamkorlikda ishlash tajribasiga ega bo'ladilar. Masalan, "Do'kon", "Kichik korxon", "Mehmon kutish" kabi imitatsion o'yinlar bolalarda ijtimoiy mas'uliyat va tashabbuskorlik sifatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Kommunikativ trening o'yinlari bolalarda samarali muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan maxsus mashqlar tizimidan iborat. Ushbu o'yinlar orqali bolalar salomlashish, suhbatni boshlash va davom ettirish, savol berish, fikr bildirish, emotsiyalarni ifodalash hamda nizoli vaziyatlarni tinch yo'l bilan hal qilish ko'nikmalarini o'zlashtiradilar. Kommunikativ treninglar aqliy nuqsonli bolalarda nutqiy faollikni oshirish va ijtimoiy ishonchni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Hamkorlikka asoslangan jamoaviy o'yinlar bolalarni umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilishga undaydi. Bunday o'yinlarda muvaffaqiyatga erishish har bir ishtirokchining faolligi va o'zaro yordamiga bog'liq bo'ladi. Natijada bolalarda jamoada ishlash, sheriklariga yordam berish, mas'uliyatni bo'lishish va umumiy natija uchun javobgarlik hissi rivojlanadi. Jamoaviy o'yinlar ijtimoiy moslashuv va tengdoshlar bilan ijobiy munosabatlarni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Raqamli o'yin elementlari integratsiyalashgan interaktiv mashg'ulotlar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslanadi. Interaktiv taqdimotlar, ta'limiy kompyuter o'yinlari, multimediyaviy vositalari va virtual topshiriqlar bolalarning qiziqishini oshirib, ta'lim jarayoniga faol jalb etadi. Raqamli o'yin texnologiyalari orqali bolalarda tezkor fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, axborotni qayta ishlash va virtual muloqot ko'nikmalari rivojlanadi. Shu bilan birga, bunday mashg'ulotlar individual yondashuvni ta'minlash hamda korreksion-pedagogik ta'sir samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Har bir o'yin mashg'uloti ijtimoiy ko'nikmalarning muayyan komponentlarini rivojlantirishga yo'naltirildi: muloqot qilish, tinglash, navbat kutish, fikr bildirish, muammolarni birgalikda hal etish va mas'uliyatni taqsimlash. Shunday qilib, mazkur o'yin texnologiyalarining kompleks qo'llanilishi aqliy nuqsonli bolalarda kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy moslashuv, hamkorlik va mustaqil faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dastlabki diagnostika natijalari shuni ko'rsatdiki, tadqiqotda ishtirok etgan bolalarning 68 foizida tengdoshlari bilan muloqotga kirishish qiyinchiliklari, 72 foizida jamoada ishlash malakalarining sust rivojlanganligi, 64 foizida esa ijtimoiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarining yetarli emasligi kuzatildi.

Tajriba-sinov dasturi olti oy davomida amalga oshirildi. Mashg'ulotlar haftasiga uch marotaba o'tkazildi. O'yin texnologiyalari asosida tashkil etilgan korreksion-rivojlantiruvchi faoliyat natijasida bolalarda sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Jumladan, kommunikativ faollik ko'rsatkichi 34 foizga oshdi, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish darajasi 31 foizga yaxshilandi, ijtimoiy vaziyatlarga moslashuv ko'rsatkichi 28 foizga ortdi, mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyasi 22 foizga rivojlandi, jamoada ishlash ko'nikmalari esa 36 foizga oshdi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ayniqsa, syujetli-rolli o'yinlar va jamoaviy topshiriqlar bolalarda ijtimoiy rollarni egallash, muloqot qilish hamda o'zaro hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega bo'ldi.

Kuzatishlar davomida bolalar o'rtasidagi nizoli vaziyatlar sonining kamaygani, o'zaro yordam ko'rsatish holatlarining ortgani va ijtimoiy faollikning kuchaygani qayd etildi. Bu esa o'yin texnologiyalarining korreksion-pedagogik salohiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, o'yin texnologiyalari aqliy nuqsonli bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi. O'yin faoliyati bolalarning tabiiy ehtiyojlari va qiziqishlariga mos kelganligi sababli korreksion ta'sirning samaradorligini oshiradi.

Ikkinchidan, syujetli-rolli va jamoaviy o'yinlar kommunikativ kompetensiyalar, hamkorlik ko'nikmalari hamda ijtimoiy moslashuvni rivojlantirishda eng yuqori natijalarni ko'rsatdi.

Uchinchidan, o'yin texnologiyalarini maxsus ta'lim dasturlariga tizimli ravishda integratsiyalash bolalarning ijtimoiy faolligi va mustaqilligini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Maxsus ta'lim muassasalarida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan o'yin texnologiyalari bankini yaratish.
2. Defektolog va maxsus pedagoglarning o'yin texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini oshirish.
3. Ota-onalarni o'yin asosidagi korreksion faoliyatga jalb etish.
4. Inklyuziv ta'lim muassasalarida hamkorlikka asoslangan o'yin dasturlarini joriy etish.
5. Raqamli va virtual o'yin texnologiyalarining korreksion imkoniyatlarini chuqur o'rganish.

Shunday qilib, o'yin texnologiyalari aqliy nuqsonli bolalarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni jamiyat hayotiga tayyorlash va ijtimoiy integratsiyasini ta'minlashning muhim pedagogik mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ayupova, M. Y. (2020). Maxsus pedagogika va logopediya asoslari. Fan.
2. Dulnev, G. M. (1991). Metodika korreksionno-vospitatel'noy raboty vo vspomogatel'noy shkole. Pedagogika.
3. Elkonin, D. B. (1999). Psixologiya igry. Pedagogika.



4. Karimova, V. M. (2018). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Fan va texnologiya.
5. Lebedinskiy, V. V. (2004). Narusheniya psixicheskogo razvitiya u detey. Akademiya.
6. Leontyev, A. N. (2005). Deyatelnost. Soznaniye. Lichnost. Smysl.
7. Luriya, A. R. (1994). Osnovy neyropsixologii. Moscow State University Press.
8. Muminova, L. R. (2019). Maxsus pedagogika. O'qituvchi.
9. Nurkeldiyeva, D. A. (2022). Inklyuziv ta'limda korreksion-pedagogik texnologiyalarning samaradorligi. Xalq ta'limi, 4(6), 52-58.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida qaror. <https://lex.uz>
11. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (2020). <https://lex.uz>
12. Po'latova, P. M. (2021). Inklyuziv ta'limning pedagogik asoslari. Tafakkur.
13. Shoumarov, G. B. (2017). Maxsus psixologiya. Nizomiy nomidagi TDPU.
14. Vigotskiy, L. S. (1993). Osnovy defektologii. Pedagogika.
15. Vygotsky, L. S. (1998). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
16. Yusupova, M. A. (2021). Inklyuziv ta'lim muhitida ijtimoiy moslashuv texnologiyalari. Xalq ta'limi, 3(5), 44-49.
17. Zokirova, M. T. (2023). Aqliy nuqsonli bolalarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik omillari. Uzluksiz ta'lim, 2(1), 67-74.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.